

Ro‘za – sihat-salomatlik garovi

Yurtimizda muborak Ramazon shukuhi hademay kirib keladi. Butun musulmon olami Ramazonning bayram sifatida kutib oladi. Ma'lumki, bu oyni har yili insoniyat intiqib kutishadi. Ro'za oyida har bir musulmonning qilgan yaxshi amallari hisobga olinadi. Musulmonlar bu oyni sog'inib kutishadilar. Katta xursandchilik va sabr-toat-ibodat bilan o'tkazadilar.

Ro'za bu – lug'atga ko'ra mutlaqo biror narsadan o'zini tiyib turishdir. Masalan, Parvardigori olamning o'zi bunday degan: "Albatta men Rahmon uchun ro'za tutishni nazr qilganman, bas, bugun biror insonga so'zlamayman!" (Maryam surasi, 26-oyat).

Ro'za so'zi bizga fors tilidan o'tgan bo'lib, lug'atda kun, kundalik, rizq-ro'z ma'nolarini bildiradi. Ya'ni Ramazon oyining kunduzi maxsus ibodat qilinadi. Shu bilan birga bu oyda rizq-ro'z keng bo'ladi. Ro'za tutmoqlik nafaqat ruhiyatimiz uchun, balki tan-sihatligimiz uchun ham foydalidir. Din dushmanlari qanchalik Ro'za tutmoqlikni zarar ekanini bong urib aytmasinlar, shifokorlar esa, koni foyda ekanini isbotlab berdilar. Zero, Ro'za tutgan odamda immunitet kuchayadi. Odam organizimida kasalliklarga nisbatan imunitet ortadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aslida ro'zani biz musulmonlar kasalliklarga foya bo'lgani uchun emas, balki Alloh taolo buyurgani uchun tutamiz, Uning roziligidan umid qilib tutamiz.

Ro'za tutishda oy taqvimiga amal qilingani uchun ham har yili Ro'za har xil oyga to'g'ri keladi. Islomga ko'ra, har bir balog'atga yetgan, sog'lom musulmonlarga farz qilingan. Ramazon ro'zasi farz bo'lgani uchun ham barcha mo'minlar bunga amal qilmoqliklari lozimdir.

Bizning oilada ham Ro'za tutmoqlikka alohida e'tibor qaratiladi. Har kun ertalab saharlikka turishib niyat qilinadi. Va kun bo'yi solih amallar qilish uchun chog'lanishadi.

Mahliyo Xamdullayeva